

KO'KTO'NLIK OTA ZIYORATGOHIGA BIR NAZAR

Masardinov Xushnudbek Bozorboy o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti 1-bosqich magistranti.

xushnudbekmasardinov@gmail.com +99894 385 36 25

Olimjonova Farog’atxon Dilmurod qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti 2-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada PQ-4068-son qaror mazmuni va Andijon viloyati Paxtaobod tumanida joylashgan “Ko’kto’nlik ota” ziyoratgohi xaqida qisqacha ma’lumotlar va xozirgi holati xaqida bayon qilinadi.

Hozirgi paytda moddiy madaniy meros obyektlari soni sezilarli darajada ortdi. Hamda ularni muxofaza qilish, obyektlar tarixini chuqur o’rganishga xar tomonlama e’tibor berilib kelinmoqda. Xususan, yurtimizda ham bu borada qator qaror va farmonlar ishlab chiqilib, amalda qo’llanilmoqda. Muxtaram yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyevning 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son qarori ham gapimizning isboti xisoblanadi. Qaror: “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” bo’lib, bu qaror yuzasidan yurtimizda ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda muqaddas qadamjo, ziyoratgohlar soni ko’p. Bularning har biri o’zining tarixiga va o’t mishiga ega. Shunday ziyoratgohlardan biri Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, Ko’kto’nlik qishlog’ida joylashgan “Ko’kto’nlik ota” ziyoratgohi hisoblanadi.

Bu muqaddas dargox xaqida xatto rivoyat xam yo‘q. Faqat unga qarab turuvchi Jiyankov Mamaraxim akaning so‘zlab berishicha bazi tushlar sabab, bu yerga kelib qolgan va Ko’kto’nli ota kabrining tuprog‘idan ko‘k yo‘tal bilan og‘rib kelgan bemorga yalatib qo‘ysa yo‘tal taqqa to‘xtab dardiga shifo bo‘lar ekan. Xaqiqatdan, xam Namangan-Buxoro, Samarqand-Xiva, Andijon-Qo‘qon, Jalolobodu-Toshkentlardan odamlar ixlos qilib kelishib dardiga davo topib ketmoqdalar. Yana bu yerlik aholining aytishicha Ko’kto’nlik ota faqat ko‘k to’n kiyib yurgan ekan. Shuning uchun ham bu nom berilgan deb xisoblashar ekan.

Xozirda bu ziyoratgoh aholi tomonidan rekanstruksiya qilinib, ancha chiroyli bo’lib qolgan. Ichida masjid ham bo’lib, xar kuni aholi bilan gavjum. Yuqorida

Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th February, 2023

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

aytganimizdek, turli viloyatlardan kelayotganlar soni ham yilning xar faslida ko'p. Xozirda bu joyda qurilish ishlari ketmoqda. Ziyoratgoxda 9 ta xona va bitta taxoratxona mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bu ziyoratgoh uzoq tarixga ega bo'lib, buni extiyot qilib avaylashimiz kerak. Kelasi avlodga bundanda ziyoda qilib yetkazmog'imiz darkor.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.lex.uz
- 2.Baxodir Muxtor Ali "Ko'kto'nliklar"
3. <https://uzbekistan.travel/uz/o/andijon-viloyati/>
- 4.Jiyanbekov Mamaraxim so'zidan
5. Aholi so'zidan

